



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
"IJTIMOIY FANLAR"
KAFEDRASITAMKORLIKDA

"SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O'ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA
ZAMONAVIY RIVOJLANISH"
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE
ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"

international scientific-practical conference

«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В
ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА:
ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ
И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ.»

международной научно-практической конференции

KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO'PLAMI

(II - JILD, III - IV SHO'BALAR)

2026-YIL
4-APREL

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI
JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
“IJTIMOIY FANLAR”
KAFEDRASI HAMKORLIKDA**



**“SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY
RIVOJLANISH”
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE ERA OF
ARTIFICIAL INTELLIGENCE: TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"
international scientific-practical conference**

**«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭПОХУ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ
НАСЛЕДИЕ И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ»
международной научно-практической конференция**

**KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI
(II - JILD, III-IV SHO‘BALAR)**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida 2026 yil 4 aprel kuni Jizzax politexnika institutida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

JIZZAX-2026

SUN’IY INTELEKT: TIBBIYOTDA E-LOYIHALARNING ZAMONAVIY INTEGRATSIYASI

*Boboyorov Bobomurod Normatovich – Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Chirchiq filiali Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha
direktor birinchi o‘rinbosari, f.f.b falsafa doktori (PhD), dotsent.
Parizoda Boboyorova – Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti qoshidagi
2-sonli akademik litsey talabasi*

Аннотация: Sun'iy intellekt (AI) hayotning turli sohalariga faol kirib bormoqda va uni qo'llashning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu tibbiyotdir. Texnologiyalar rivojlanishi va investitsiyalarning ko'payishi bilan sun'iy intellekt sog'liqni saqlash sifatini yaxshilash, shifokorlarning ish yukini kamaytirish va diagnostika aniqligini oshirishda muhim rol o'ynay boshladi. Mazkur maqolada sun'iy intellektni tibbiyotda qo'llash imkoniyatlari, uning ijobiy va salbiy ta'siri masalalari tahlil qilingan.

Калит so'zlar: sun'iy intellekt, etika, dasturiy ta'minot, jarayonlarni avtomatlashtirish, mashinaviy o'qitish algoritmlari, inson omili, prognozli tahlil, mehnat samaradorligi, murakkab modellar, simulyatsiyalarni yaratish.

Аннотация: Искусственный интеллект (ИИ) активно внедряется в различные сферы жизни, и одним из наиболее перспективных направлений его применения является медицина. С развитием технологий и увеличением инвестиций искусственный интеллект начал играть важную роль в повышении качества здравоохранения, снижении нагрузки на врачей и повышении точности диагностики. В данной статье анализируются возможности использования искусственного интеллекта в медицине, а также его положительные и отрицательные стороны.

Ключевые слова: искусственный интеллект, этика, программное обеспечение, автоматизация процессов, алгоритмы машинного обучения, человеческий фактор, предиктивная аналитика, производительность труда, сложные модели, создание имитационного моделирования.

Abstract: Artificial intelligence (AI) is being actively introduced into various spheres of life, and one of the most promising areas of its application is medicine. With the development of technology and increasing investment, artificial intelligence has begun to play an important role in improving the quality of healthcare, reducing the workload of doctors and increasing the accuracy of diagnosis. This article analyzes the possibilities of using artificial intelligence in medicine, as well as its positive and negative aspects.

Keywords: artificial intelligence, ethics, software, process automation, machine learning algorithms, human factor, predictive analytics, labor productivity, complex models, creation of simulation modeling.

Kirish

Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq ho’jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirmoqda.

O’zbekistonda ham axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030 yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o’rin egallash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi hamda “Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda raqamlashtirishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan.

Shu bilan birga, so’nggi yillarda axborotlashtirish va ilg’or texnologiyalarni turli sohalarda tadbiq etish borasida chora-tadbirlar natijasida O’zbekistonda AKT va sun’iy intellekt sohasida o’ziga xos salohiyat asoslari yaratildi. Bu borada Raqamli texnologiyalar vazirligi va vazirlik tizimidagi tashkilotlar, AKT bo’yicha ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muassasalari va ularning iqtidorli bitiruvchilari hamda texnoparklar, xususiyl sektordagi bir qator tashkilotlar faoliyatini alohida e’tirof etish mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari yo’nalishida Farg’ona shahridagi maktablarda “Aqlli maktab” dasturi, Andijon viloyatida “Monterra” ekin maydonlarining holatini baholovchi onlayn platforma joriy etilgan bo’lsa, Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida “Aqlli shahar”, Toshkent shahrida esa “Xavfsiz shahar” va “Raqamli Toshkent” loyihalarini amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, zamonaviy sun’iy intellekt turli amallarni bajarishga mo’ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat bo’lib, inson ongi bajarishi mumkin bo’lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma’lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, sun’iy intellekt murakkab tahlillar va katta ma’lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o’z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega “aqlli” texnologiya hisoblanadi. Mutaxassislar tomonidan sun’iy intellektga to’rtinchi sanoat inqilobining asosi sifatida qaralmoqda. Mutaxassislar fikricha, aholini ijtimoiy ximoya qilishning asosini ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug’urta va bandlik bilan bog’lik dasturlar tashkil qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sohada, xususan, sog’liqni saqlash, ta’lim, bandlik, ijtimoiy himoya va boshqa yo’nalishlarda sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish keng tus olmoqda.

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalardan quyidagi loyihalarini ko’rib chiqish mumkin. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasida amalga oshirilgan “Harambee” loyihasi ijtimoiy yoshlar bandligini ta’minlashga ko’maklashishga yo’naltirilgan bo’lib, ushbu dastur sun’iy intellekt yordamida kasbiy-malakaviy moslikni aniqlab, ish izlovchilar bazasini shakllantiradi va ularga turli me’yorlarga asosan tegishli mos bo’sh ish o’rnini taklif qiladi. “Harambee” qisqa davr ichida asosan xususiy va norasmiy sektorda yoshlarni ish bilan ta’minlagan.

Sun’iy intellekt asosida ishlovchi kasbiy-malakaviy moslik bo’yicha dasturning O’zbekiston sharoitida qo’llanilishi norasmiy sektorda band bo’lgan, ayniqsa, bir martalik ish bozorlaridagi ish qidiruvchilarning bandligini ta’minlashga va ularni ijtimoiy himoya bilan qamrab olishga imkon beradi. Dastlabki bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalarini mobil qurilmalardan foydalanish mumkin bo’lgan dasturlar orqali taklif qilib, norasmiy sektordagilarni kunlik va mavsumiy ishlarga jalb qilish, ularning bandligini ta’minlash mumkin.

“GiveDirectly” dasturi esa bir qator Osiyo va Afrika davlatlarida chekka hududlarda yashovchi kambag’al oilalarga to’g’ridan-to’g’ri moddiy-pul mablag’larini berishni ko’zda tutadi. Dastur orqali chekka hududlarda yashovchi ehtiyojmand kambag’al oilalarni aniqlashda asosiy mezonlarga qo’shimcha ravishda sun’iy yo’ldosh orqali yig’ilgan ma’lumotlardan foydalaniladi. Dasturlashtirilgan sun’iy intellekt kambag’al oilalar xonadonlarining qanday ashyolardan qurilganini tahlil qiladi va moddiy sharoitlarini baholaydi. Sun’iy yo’ldosh orqali yig’ilgan tasvirlar va navigatsiya ma’lumotlari ijtimoiy himoya dasturining ma’lumotlar bazasiga kiritilib, ulardan birinchi navbatda sun’iy intellekt faoliyatini ta’minlashda, ikkinchidan esa ijtimoiy himoyaga muhtojlik mezonlarini belgilash va aniqlashda foydalaniladi.

Sun’iy intellektga asoslangan loyihalarni O’zbekiston sharoitida mavjud dasturlar va davlat idoralaridagi ma’lumotlar bazasini integratsiyalashtirish va kengaytirish orqali bir qator istiqbolli loyihalarni ko’rib chiqish mumkin. O’zbekistonda hozirda mavjud ma’lumotlar manbalaridan sun’iy intellekt ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish mumkin. Jumladan:

- Identifikatsiyalash yagona tizimi – (id.gov.uz);
- O’zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali – (data.gov.uz);
- Elektron hukumat tizimi ma’lumotlar bazasi – (my.gov.uz);
- Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi – (davxizmat.uz);
- turli vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazasi.

Shuningdek, jahon tajribasida ijtimoiy sohaga yo’naltirilgan dasturlarda sun’iy intellekt ma’lumotlar bazasini shakllantirishda milliy ID tizimlari ma’lumotlari, aholini ro’yxatga olish va soliq to’lovchilar bazasi, tibbiyot, bank,

sug’urta kompaniyalari, do’kon va bozorlar xaridorlari, mobil aloqa operatorlari ma’lumotlari hamda aholining kommunal to’lovlar va qarzdorlik, kredit tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi kabi manbalardan qonun doirasida foydalaniladi.

Qayd etish joizki, sun’iy intellektni ijtimoiy va boshqa sohalarga joriy qilishda shaxsga doir ma’lumotlar daxlsizligi, ularni saqlash va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlari, ayniqsa, AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar va yetakchi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo’lib, inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlar masalasi hamda sun’iy intellektdan siyosiy va buzg’unchi maqsadlarda foydalanish xavfi dolzarb hisoblanadi. Ayrim davlatlar, xususan, Xitoy va Rossiyada sun’iy intellekt va AKTdan fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklash va siyosiy maqsadlarida foydalanilmoqda, degan ayblovlar yangramoqda. Shuning uchun sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratishda bu masalalarga ham alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Asosiy qism

Bugungi kunda sun’iy intellekt barcha sohalarda dadil qo’llanilyapti va uning ta’siri kundan kunga ortib bormoqda. Dastlab sun’iy intellekt texnologiyalari, asosan, ilmiy-tadqiqot muassasalarida qo’llanilgan bo’lsa, bugungi kunda ular kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Sun’iy intellekt zamonaviy ilm-fanga sezilarli o’zgarishlar kiritib, tadqiqot usullari, ma’lumotlarni tahlil etish va qaror qabul qilish jarayonini o’zgartirmoqda, inson biologiya, kimyo, fizika, astronomiya kabi zamonaviy fanlar har kuni ishlab chiqaradigan terabayt ma’lumotlarni qayta ishlashga qodir emas. Shu bois, sun’iy intellektga yordam so’rab murojaat qilayotgan olimlar soni ortib bormoqda.

Kundalik hayotimizda hamma bilgan ChatGPT yoki Alisa kabi sun’iy intellektga asoslangan virtual assistentlardan foydalanayotganlarni ko’p ko’ramiz. Ular inson uchun eng qadrlı bo’lgan resurs, ya’ni vaqtni tejashga yordam beradi. Masalan, mashhur inson haqida ma’lumot kerakmi, marhamat, uch soniyada sizga tahlil qilingan ma’lumot elektron ko’rinishda taqdim etiladi. Agar siz ushbu ma’lumotni o’zingiz qidirsangiz, bir necha adabiyotni tahlil qilishingizga, hattoki Googledan qidirsangiz ham o’zingizga ma’qul keladigan havolani topishingizga 3 soniyadan ko’p vaqtingiz ketadi. Changyutkich kashf qilinganiga bir asrdan oshdi. Bugungi kunga kelib, changyutkichlar sun’iy intellekt yordamida inson yordamisiz ishlay oladi. Yana bir misol, qo’limizdagi telefonlarda olingan tasvirlarga “sun’iy intellekt yordamida ishlov berish orqali tasvirlardan keraksiz ob’ektlarni olib tashlash imkoniyatiga ega bo’ldik.

Bugungi kunda sun’iy intellekt biznes jarayonlarini avtomatlashtirishda qo’l kelmoqda. Ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko’rsatish kabi turli sohalarda kundalik vazifalarni avtomatlashtirish uchun sun’iy intellektdan foydalanish ortib bormoqda. Bu samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishda faol qo’llaniladi, bu esa kompaniyalarga yanada asosli qarorlar olish va bozor siyosatini bashorat qilishga yordam beradi.

Kelajakda sun’iy intellekt raqobatga bevosita ta’sir qilishi mumkinligini, bu esa kompaniyalar, mehnat bozorlari va iqtisodiyot uchun ijobiy o’zgarishlarga olib kelishini hisobga olgan holda, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi asosiy xulosalarini tavsiyanoma sifatida berib o’tgan.

Sun’iy intellekt beshta texnologiya guruhini birlashtiradi - mashina ko’zi, tabiiy til, virtual yordamchilar, robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish va kengaytirilgan mashinaviy o’qitish va, umuman olganda, global iqtisodiy faoliyatga hissa qo’shish uchun ulkan salohiyatga ega. Ba’zi kompaniyalar alohida funktsiyalarni bajarish uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan birini qo’llashga harakat qiladi, boshqalari esa sanab o’tilganlarning barchasini qo’llashi mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jadal sur’atlar bilan amalga oshiriladi va 2030 yilga kelib, global yalpi ichki mahsulotning 1,2 foiz o’sishini ta’minlaydi, bu ilgari joriy etilgan barcha texnologiyalardan ko’proqdir. Shu bilan birga, sun’iy intellektning iqtisodiy samarasi asta-sekin, tezlashgan sur’atda namoyon bo’lishi va faqat vaqt o’tishi bilan sezilarli bo’lishi mumkin. Chunki boshida joriy etish uchun sezilarli xarajatlar, keyinchalik raqobat va bir-birini to’ldirishning kuchaytiruvchi ta’siri zarur.

Sun’iy intellekt global iqtisodiyot samaradorligini oshirishi mumkin, ammo olingan foyda taqsimoti notekis bo’lishi ehtimoli yuqori. Uni joriy etish rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlanganlaridan ortda qolishini va shu bilan davlatlar o’rtasidagi hozirgi raqamli tafovutni kuchaytiradi. Kompaniyalar darajasida sun’iy intellektdan foydalanish ushbu texnologiyalarni joriy etish bo’yicha yetakchilar va joriy etishni kechiktirgan yoki o’z faoliyatida texnologiyalardan umuman foydalanmaganlar o’rtasidagi samaradorlik farqi oshishiga olib kelishi mumkin. Nihoyat, sun’iy intellekt jahon mehnat bozoridagi talabni odatiy vazifalarni bajarishni talab qiladigan kasblardan ijtimoiy va kognitiv yo’naltirilgan mutaxassisliklarga, shuningdek, avtomatlashtirish qiyin bo’lgan faoliyat bilan bog’liq kasblarga o’tkazishi mumkin.

Boshqacha aytganda, agar sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish samarasiz bo’lsa, milliy iqtisodiyotlar, alohida kompaniyalar va mehnat bozoridagi ishchilar o’rtasidagi tengsizlik kucha-yishi mumkin, bu esa ehtimoliy ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunga yo’l qo’ymaslik uchun mamlakatlar hukumatlari biznes bilan birgalikda ishchilarni qo’llab-quvvatlashi va talab yuqori bo’lgan yangi ish o’rinlariga muammosiz o’tishini ta’minlashi, odamlarning o’zlari esa dinamik o’zgaruvchan mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq yangi ko’nikmalarni o’zlashtirishi kerak bo’ladi.

Sun’iy intellekt tadqiqotlarni jadallashtirishga qanchalik ta’sir qila oladi, degan haqli savol tug’ilishi mumkin. U ma’lumotlarni to’plash va qayta ishlash kabi kundalik vazifalarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Tadqiqotchilar vaqtini yanada ijodiy va murakkab vazifalar uchun bo’shatadi. Murakkab modellar va simulyatsiya-larni yaratish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa farazlarni tezroq sinab ko’rish va tajriba o’tkazish imkonini beradi.



Ulkan hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda uning o’rni beqiyos. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko’pincha katta hajmdagi ma’lumotlarni yaratadi (masalan, genomika yoki astronomiyada). Sun’iy intellekt bu ma’lumotlarni tezda tahlil qilib, inson uchun noaniq bo’lgan qonuniyatlar va aloqalarni aniqlashga qodir. Mashinaviy o’qitish algoritmlari ma’lumotlarni tasniflash, natijalarni prognozlash va anomalialarni aniqlashda yordam berishi mumkin.

Sun’iy intellekt ilmiy fanlarni birlashtirishga yordam beradi. Masalan, biotibbiyot tadqiqotlari sohasida sun’iy intellekt yangi davolash usullarini ishlab chiqish uchun genetika, kimyo va klinik tibbiyot ma’lumotlarini birlashtirishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellektdan ekologiya, sotsiologiya va iqtisodiyot kabi sohalarda foydalanish murakkab tizimlarni va turli omillar o’rtasidagi o’zaro ta’sirlarni o’rganish imkonini beradi.

Aniqlik va ishonchlilikni yaxshilaydi. Prognozli tahlillarda qo’l keladi. Klinik tibbiyotdan iqlimshunoslikkacha bo’lgan turli sohalarda prognozlar aniqligini oshirishi mumkin, bu esa yanada asosli qarorlar qabul qilishga yo’l ochadi.

Inson omilini kamaytiradi. Sun’iy intellektdan foydalanish ma’lumotlarni tahlil etish va natijalarni talqin qilishda inson xatosining ta’sirini kamaytiradi. Sun’iy intellekt muayyan xususiyatlarga ega yangi materiallarni topishga yordam beradi, bu elektronika va energetika kabi texnologiyalar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, farmatsevtikada sun’iy intellekt yangi dori ishlab chiqish jarayonini tezlashtirish, molekulalar o’rtasidagi o’zaro ta’sirlarni tahlil qilish va samaradorligini bashoratlash uchun qo’llaniladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlilida uning o’rni alohida. Tadqiqotchilarga o’zlarini qiziqtirgan mavzular bo’yicha dolzarb maqolalar va tadqiqotlarni tezda topishga yordam beradi, bu esa bilim olishni osonlashtiradi va yanada samarali ta’lim olishga ko’maklashadi. Aqlli qidiruv tizimlari orqali olimning oldingi ishlari asosida tegishli tadqiqotlarni tavsiya qilishi mumkin.

Sun’iy intellekt ilmiy tadqiqotlarga yondashuvlarni tubdan o’zgartirib, ularni yanada samarali, tezkor va aniq qiladi. Biroq ilm-fanda sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlarini, jumladan, algoritmlar shaffofligi, ma’lumotlarni himoya qilish va qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik masalalariga ham e’tibor qaratish muhimdir. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, sun’iy intellekt kelajakdagi ilmiy taraqqiyotda muhim rol o’ynashda davom etadi.

Shveysariyalik astrofizik Kevin Shavinski 2007 yilda Galaxy Zoo nomli startapini ishga tushirdi. Mazkur startap loyiha asosiy maqsadi koinotdagi galaktikalarni morfologik tasniflashdan iborat. Loyiha nomidan kelib chiqib qaraydigan bo’lsak, Galaxy Zoo, ya’ni galaktikalar zooparki koinotdagi galaktikalarning ko’rinishi, yoshi va ranglariga qarab ularni saralash imkonini taqdim etdi. Misol uchun, Somon yo’li (Milky way) spiralsimon galaktika sifatida tasniflanadi. Internet foydalanuvchilari o’z taxminlari orqali olimga galaktikalar uchun toifalarni tasniflashda uzoq yillar davomida yordam berdi. Kevin Shavinski

internet foydalanuvchilari taxminlari asosida ishlab chiqqan sun’iy intellekt modeli esa bu ishni bir kechada uddalay oldi.

Bugungi kunda eng mashhur generativ modellashtirish tizimlari generativ-raqobatli tarmoqlar hisoblanadi. Bu tarmoqlar shikastlangan tasvirlarni tiklash, xiralashtirilgan tasvirlarni aniqroq qilish imkoniyatiga ega. Tarmoq ikki qismdan iborat: birinchisi — yolgʻon maʼlumotlar generatori, ikkinchisi — yolgʻon maʼlumotlarni haqiqiy maʼlumotlardan farqlashi kerak boʻlgan detektor. Shu tarzda musobaqalashib, tarmoq yetishmayotgan axborotni aniqlashni oʻrganadi va asta-sekin rivojlanib boradi.

Glazgo universiteti kimyogari Li –Kronin yangi birikmalar olish uchun kimyo–viy moddalarni tasodifiy ravishda aralashtirish imkonini beruvchi sun’iy intellektdan foydalangan. Real vaqt rejimida kimyoviy reaksiyalarni mass-spektrometr, yadro –magnit rezonansi va infraqizil spektrometr yordamida kuzatish orqali tizim eng reak–tsion qobiliyatli birikmalarni oldindan aniqlashni oʻrgandi.Kroninning fikricha, bunday robotlashtirilgan tizimlar kimyogar olimlar ishini 90 foiz tezlashtirishi mumkin.

Syurixda olimlar jamoasi maʼlumotlar asosida fizikaning mashhur qonunlarini qayta ishlab chiqqan neyron tarmogʻidan foydalangan. U Quyosh va Marsning osmonda Yerga nisbatan joylashuvi haqidagi –maʼlumotlarni oʻrganib, Quyosh tizimining geliotsentrik modelini qayta kashf etdi. Shuningdek, u bir-biriga urilayotgan sharlarni kuzatish orqali impul’sning saqlanish qonunini yana bir bor tasdiqladi.

“The Book of Why” (2018) kitobida informatik olim Jud Perl va fan targʻibotchisi Dana Makkenzi sabab-oqibat savollariga javob berish uchun maʼlumotlardan foydalanish befoyda ekanini taʼkidlaydi. Ularning fikricha, modellashtirilmagan maʼlumotlar tahliliga asoslangan har qanday tadqiqot faqat umumlashtirish va oʻzgartirishga qodir, ammo maʼlumotlarni hech qanday talqin qilmaydi.

Bunday tadqiqotlarda sun’iy intellektni qoʻllashning muvaffaqiyati ilm-fanda odamlar endi kerak emasligini anglatmaydi. Biroq bunday tizimlarga maʼlumotlarni qayta ishlashning oddiy vositasi sifatida qaramaslik kerak, sun’iy intellekt ilmiy fikri toʻliq boʻlmasa-da, avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

Masalan,Xitoyda sun’iy intellekt boʻyicha shifokorlar joylashgan dunyodagi birinchi virtual shifoxona ochildi. 2025yil may oyi boshida Xitoyning Tsinghua universiteti tadqiqotchilari sun’iy intellekt tomonidan toʻliq boshqariladigan dunyodagi birinchi virtual shifoxonani taqdim etgani maʼlum boʻldi. Agent kasalxonasi deb nomlangan loyiha tibbiy muassasaning raqamli modeli boʻlib, shifokorlardan tortib to bemorlargacha boʻlgan barcha rollar neyron tarmoqlar yordamida yaratilgan virtual belgilar tomonidan bajariladi.2025 yil aprel oyi boshida toʻliq avtomatlashtirilgan, raqamli boshqariladigan intratsitoplazmik sperma ineksiyasi (ICSI) tizimi yordamida dunyoda birinchi farzand dunyoga kelgani eʼlon qilindi. Jarayon maxsus sun’iy intellekt algoritmlari yordamida boshqarildi.

Saudiya Arabistoni dunyoda birinchi bo‘lib sun‘iy intellekt (SI) asosida ishlovchi shifokor klinikasini ishga tushirdi. Bu yangi loyiha Shanxayning Synyi AI kompaniyasi va mahalliy Almoosa Health Group hamkorligida amalga oshirildi. Klinikada “Doktor Xua” deb nomlangan virtual SI shifokor faoliyat yuritadi. Bemorlar planshet orqali o‘z belgilarini bayon qiladi, SI esa qo‘shimcha savollar berib, diagnostika ma'lumotlarini (kardiogramma, rentgen) tahlil qiladi. Muhimi: Doktor Xua mustaqil ravishda davolash rejasini tuzadi, ammo har bir tavsiyani inson shifokor ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi. Bu model SI tezligi va inson xavfsizligi kafolatini birlashtiradi. Synyi AI ma'lumotlariga ko‘ra, AI tizimi ichki sinovlarda 0.3% dan kam xatolik ko‘rsatgan.

Hozircha xizmat nafas yo‘llari kasalliklari (astma, faringit va boshqalar) bilan cheklangan. Kelgusi yilda hazm va teri kasalliklarini ham qamrab olish rejalashtirilgan. Bu loyiha doirasida xizmat bepul, bu orqali ko‘proq ma'lumot to‘planib, rasmiy ruxsat olishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Bu Synyi AI‘ning Xitoydan tashqaridagi birinchi loyihasi bo‘lib, kompaniya 800 dan ortiq tibbiyot muassasalari bilan hamkorlik qilgan.

Xulosa

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasida sun‘iy intellekt faol joriy etilmoqda va uning salohiyati allaqachon tibbiy xizmatlar sifatiga, tashxis qo‘yish va tibbiy yordamdan foydalanishga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Sog‘liqni saqlashni raqamlashtirish dasturi doirasida O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi sun‘iy intellekt texnologiyalariga, ayniqsa, kasalliklarni tashxislash, ma'lumotlarni tahlil qilish va bemorlarni masofadan kuzatib borishga katta e‘tibor qaratmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrda qabul qilingan PQ-358-sonli “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori tasdiqlandi. Ushbu Qarorda sog‘liqni saqlash sohasida kasalliklarni tashxislash, davolash usullarini belgilash, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va bemorga oid ma'lumotlarni boshqarish - sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi.

Sun‘iy intellektni, masalan, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish yoki kasalliklarni bashorat qilishda qo‘llash, tashxis qo‘yish jarayonini tezlashtirish va tashxisning aniqligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Hozirda aholining ehtiyojmand qatlamlariga manzilli va maqsadli, mahallalar kesimida yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni ta‘minlash bo‘yicha yangi tajriba qo‘llanilmoqda. "Elektron poliklinika," "Elektron retsept" dasturlari joriy etilmoqda. Buning uchun patronaj xodimlari xalqaro standartlar bo‘yicha o‘qitilmoqda.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida sun‘iy intellekt ta‘sirining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin:

- Kasalliklarni tashxislash: Sun‘iy intellekt tashxis aniqligini oshirishga yordam beradi. Masalan, sun‘iy intellekt algoritmlari rentgen va MRT tasvirlarini tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Bu esa tashxis qo‘yish vaqtini qisqartirish hamda saraton, yurak-qon tomir kasalliklari va sil kabi kasalliklarni aniqlashning aniqligini oshirish imkonini beradi.

- Teletibbiyot va xizmatlardan foydalanish imkoniyati: O‘zbekistonda teletibbiyot ham rivojlanmoqda, bu ayniqsa qishloq va chekka hududlar uchun muhimdir. Sun'iy intellekt bemor ma'lumotlarini masofadan turib tahlil qilish va maslahat berish imkonini beradi. COVID-19 pandemiyasi sharoitida teletibbiyot ayniqsa talabga ega bo‘lib, bemorlar oqimini boshqarish va yuqish xavfini minimallashtirishga yordam beradi.

.- Epidemiyalarni bashorat qilish uchun katta ma'lumotlarni tahlil qilish: Sun'iy intellekt, shuningdek, kasalliklar va boshqa epidemiyalarni bashorat qilish uchun katta ma'lumotlar to‘plamini tahlil qilishda yordam beradi. O‘zbekistonda bunday tizimlarning joriy etilishi davlatga yuqumli kasalliklarning ko‘payishi kabi ehtimoliy tahdidlarga tezroq javob berish va profilaktika choralarini amalga oshirish imkonini beradi.

- Ma'muriy optimallashtirish: Sun'iy intellekt ro‘yxatga olish, bemor ma'lumotlarini saqlash va resurslardan foydalanishni nazorat qilish kabi ko‘plab ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirish orqali boshqaruv jarayonlarini yaxshilaydi. Bu muassasalarni saqlash xarajatlarini kamaytirishga va bemorlarning tibbiy yordamdan foydalanishini osonlashtirishga yordam beradi.

Tibbiyotda sun'iy intellekt diagnostika va davolashni sezilarli darajada yaxshilash uchun imkoniyatlar ochadi, ammo sog‘liqni saqlash tizimida xavfsizlik, ma'lumotlarni maxfiyligi va himoyasi, tashxis qo‘yish va davolashdagi xatoliklar xavfi hamda texnologiyalardan foydalanishda tengsizlikka ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan bir qator xavflarni ham keltirib chiqaradi.

Sun'iy intellekt imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun shifokorlarni raqamli tizimlar bilan ishlashga o‘rgatadigan dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun milliy infratuzilmani rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Umuman olganda, O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida sun'iy intellektning rivojlanishi, ayniqsa, hududlarda xizmatlarni optimallashtirish va ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamning ommabopligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. All the unexpected ways ChatGPT is infiltrating students’ lives, URL: <https://www.washingtonpost.com/education/2023/06/01/students-chatgpt-ai-tools/>
2. Safarov T. S. et al. Methods and Models of a Multifunctional System Support for Decision Making for Differential Diagnosis of Diseases //International Journal. – 2020. – T. 9. – №. 3.
